

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

FAZLIDDINOVA ZULXUMOR AKRAMJON QIZI

**MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
PROGNOZLASHTIRISHNI GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Economic Sciences**

Fazliddinova Zulxumor Akramjon qizi

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni
geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish..... 3

Фазлиддинова Зулхумор Акрамжон кизи

Совершенствование прогнозирования социально-экономического
развития регионов на основе геоинформационных технологий..... 29

Fazliddinova Zulkhumor Akramjon kizi

Improving the forecasting of regional socio-economic development based
on geoinformation technologies 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

FAZLIDDINOVA ZULXUMOR AKRAMJON QIZI

**MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI
PROGNOZLASHTIRISHNI GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3879 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot marjaziida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirov Abdurashid Madjitovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergashev Erkin Irokovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Valiyev Bobur Batirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.23.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 4 " 09 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-26, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2073 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel. (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 21 " 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil " 21 " 08 dagi № 15 raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.E. Sindarov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.S. Fayzullayev

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kоти, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.S. Kuchkarov

ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash global miqyosdagi eng muhim masala bo'lib turibdi. 2024-2026 yillarda dunyo aholisi va global YaIMning 80% dan ortig'ini tashkil etuvchi mamlakatlarda o'sish sur'atlari COVID-19 pandemiyasidan oldingi o'n yillikdagidan past bo'lib qolmoqda ¹. 2025-yilda Germaniyaning geofazoviy tahlil (Geospatial Analytics) bozori hajmi 1,45 milliard AQSh dollarida baholanmoqda va bu ko'rsatkich 2030-yilga kelib 2,55 milliard dollarga yetishi kutilmoqda². Shu bois, GAT texnologiyalaridan mintaqalarni prognozlashtirish dastagi sifatida foydalanish, uning tarkibiy komponentlarini va hududiy iqtisodiy siyosatni shakllantirishga ta'sirini tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Geoaxborot texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish, kartografik vizualizatsiya va hududiy prognozlar ishlab chiqish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik muammolarni hal qilishda ushbu texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Xususan, dunyodagi eng yirik (Earth Observation - EO, ArcGIS Living Atlas va boshqalar) dasturlar mavjudligi sababli, geoaxborot texnologiyalari dunyoda juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda³. Ushbu dasturlardagi texnologiyalar ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish tizimida tub o'zgarishlar yasab, insonlar turmush tarziga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish tizimining GAT texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi iqtisodiyotni boshqarishda muhim metodologik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni raqamlashtirish masalalari bugungi kunda strategik ahamiyatga ega ⁴. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida iqtisodiyotni raqamlashtirish va mintaqaviy rivojlanishni samarali boshqarish ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan. Raqamli texnologiyalar, xususan, geoaxborot texnologiyalari (GAT) va sun'iy intellekt (SI) algoritmlari urbanizatsiya sur'atlari, demografik dinamika hamda iqtisodiy o'sish jarayonlarini modellashtirishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalardan oqilona foydalanish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va resurslarni optimallashtirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, GAT va SI integratsiyasiga asoslangan mintaqaviy rivojlanishni prognozlash tizimini takomillashtirish hamda qaror qabul qilish jarayonlariga joriy etish iqtisodiyot fanining muhim vazifalaridan biridir.

Olib borilgan tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi

¹ World Bank. 2024. Global Economic Prospects, June 2024. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2058-8. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/d644659c-2e22-410e-98a5b8a40dc6c183/content>

² <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/germany-geospatial-analytics-market>

³ <https://shorturl.at/8RYrB>, <https://livingatlas.arcgis.com/en/home/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-sonli Farmoni.

Prezidentining 2025-yil 30-oktabrdagi PF-201-son “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrdagi PQ-394-son “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy, axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganligi darajasi. Hududlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishini tarkibiy o‘zgarishlari, mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirish, iqtisodiyot va geoaxborot texnologiyalarni bog‘liqligi ko‘plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Ch.Manas, W.Isard, M.Storper, J. D.Geoffrey, N.Douglass, M.Zeiler, A.M.Berlyant, M.N.DeMers, V.P.Raklov, M.P.Glebov, L.E.Biryukov, I.G.Vovk, T.Yu.Bugakova, L.Kleinlar mintaqaviy tahlil va GAT texnologiyalaridan foydalanish orqali iqtisodiy faollikning hududiy taqsimotini o‘rganib, mintaqaviy tahlil usullarini ishlab chiqqan⁵.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.R.Taymasov, A.V.Moshkov, N.V.Dyuvina, N.V.Trofimova, V.A.Bessonov, V.V.Ivanov kabi iqtisodchi olimlarning ishlari iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning mintaqaviy va tarmoqlarga xos jihatlari o‘rganishga bag‘ishlangan⁶.

⁵ Chatterji, Manas. (2013). Walter Isard and the Role of Regional Science and Peace Science for the Poor Countries. International Regional Science Review. 37. 96-106. 10.1177/0160017613484927.; Michael Storper “The Regional World: Territorial Development in a Global Economy” (1997), “Regional Development in the Global Economy” (2001); Geoffrey J. D. Hewings “Regional Economics and Policy” (2003), “Economics and GIS: From Spatial Data to Decision Support” (2001); A.M.Берлянт Картография: – М.:Аспект Пресс, 2002. – 336 с; DeMers M.N.GIS For Dummies/ M.N.DeMers. – New Jersey: Wiley,2009. – 384 p; Glebov M.P et al 2013, Knowledge of the land as an integral element of the general culture Bulletin of the Irkutsk State Agricultural Academy 2(57-2)83-8; Biryukov L.E 2010, Fundamentals of planning and improvement of populated and industrial territories (M.: Higher School); Hiller B and Yambaev Kh.K.2016, Development and full-scale tests of an automated deformation monitoring system Bulletin of SSUGit 1(33) 48-61; Vovk I.G and Bugakova T.Yu,2010, The theory of determining in the technogenic geodynamic risk of the spatio-temporal state of technical systems GEO-Siberia-2010. VI International scientific Congr. (Novosibirsk, April 19-29, 2010) vol 1pp 21-4V.P.

⁶ Бессонов В.А. Трансформационный спад и структурные изменения в российском промышленном производстве. М. – 2001. – №. 30 Р – 114 с.; Трофимова Н.В., Таймасов А.Р. Анализ структурных факторов развития российских регионов //Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2017. – №. 4. – С. 30-33; Иванов В.В. Цифровая экономика: мифы, реальность, перспектива / В.В. Иванов, Г.Г. Малинецкий. – Москва: Российская академия наук, 2017.

Mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlanish va prognozlashtirish bo'yicha T.Ahmedov, A.Sodiqov, A.Soliyev, Sh. Nazarov, A.Nizamov, A.Qodirov, A.Mamatqulov, B.Valiyev, B.Ruzmetov, F.Egamberdiyev, I.Yakubov, M.Mahmudov, B.B.Berkinov, D.S.Ashurov, M.Mirzakarimova, N.Sotvoldiyev, E.Ergashev, B.Ma'murov va boshqalar ilmiy ishlarida keng yoritib berishgan⁷ va bu soha bo'yicha iqtisodiy tahlil, statistika, makroiqtisodiy modellash, hududiy tahlil va prognozlash uslubiylarini ishlab chiqishgan. Mamlakatimizda mintaqalarni tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini hududiy ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish konsepsiyalari tashkil etadi. Bundan tashqari T.X. Boltaev, M. Mirzaliyev, E.Y. Safarov va A.A. Ibraimovlar o'z tadqiqotlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni kartografik usulda aks ettirish, tahlil qilish va hududiy tafovutlarni aniqlash masalalarini o'rganganlar. Shuningdek, geoaxborot texnologiyalari (GAT) iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish, hududiy rivojlanishni baholash hamda fazoviy ma'lumotlarni boshqarish va modellashtirishda qo'llash masalalari bo'yicha M.Q. Sultonov, S. Avezbaev, O.S. Avezboyevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan⁸. O'tgan asrning oxiriga kelib, ilmiy-texnika taraqqiyotining barcha yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy xaritalashtirishning yangi bosqichi, ayniqsa, GAT texnologiyalaridan keng foydalanish bilan xarita yaratish jarayonida ishtirokchilar doirasini kengaytirish zarurligiga olib keldi.

Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Shuningdek, hozirgi bosqichda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi yetarli darajada o'rganilmagan. Shuni hisobga olganda ushbu tadqiqot ishining mavzusi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

⁷ Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. – Т., 2011, –120 б.; Ахмедов Т.М. Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АН РУз, 2011. – С. 18-21.; Кадиров А. Региональная экономика. – Т.: Издательский дом Инновационного развития, 2018 г., 227 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне //Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.; Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис. докт. экон. наук. – Ташкент: 1998.; Якубов И. Формирование эффективной структуры экономики регионов Узбекистан в условиях углубления рыночной реформы. Автореф. дис. кан. экон. наук. – Ташкент: 2004.; Низамов А.Б. Экономический рост: управление региональной экономикой в условиях рынка. Монография. – Т.: Turon-Iqbol, 2006, 208 с.; Салиев А.С. и др. Сдвиги в отраслевой и территориальной структуре экономики Узбекистана //Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов. – 2016. – №. 5. – С. 209-218; B.B. Berkinov, D.S. Ashurova, M.K. Abdullaev. "Mintaqalami ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash" - (o'quv qo'llanma) - Т.: TDIU, 2010 yil – 216 bet; M.M. Mirzakarimova Экономический цикл: структурные изменения и вопросы занятости. – Т.: "FAN", 2010. – 215 с.; Nizamov A.A. Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: O'zMU, 2021. – 58 b, B. Ma'murov. Raqamlashtirish sharoitida hududlar iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirish i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: TDIU, 2023. – 60 b; Ergashev, E. I. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. 318 b. NIF MSH. ISBN:978-9910-793-21-9. 2024.

⁸ Boltaev T.X., Raxmonov Q., Akbarov M.O. Geoaxborot tizimining ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent 2019. 274 bet; S.Avezbayev, O.S. Avezboyev. Geoma'lumotlar bazasi va arxitekturasini /O'quv qo'llanma. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti: Т.: "Iqtisod va moliya" 2016. 216 b.; M. Mirzaliyev, M. Musaev. Kartografiya. Toshkent. – "ILM-ZIYO", 2007 –160b; E.Y. Safarov, X.A. Abdurahimov Geografik axborot tizimlari "Toshkent" 2007y; M.Q. Sultonov, Geoaxborot kartografiyasi (o'quv qo'llanma) – Urganch, 2014 y; A.A. Ibraimova, Ijtimoiy-iqtisodiy kartografiya [Matn]: o'quv qo'llanma – Toshkent: Tafakkur tomchilari, 2020.-306b.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-9224094160 "Integratsion jarayonlarni rivojlantirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror iqtisodiy o'sish strategiyasini shakllantirish" va AL-8624042651-sonli "O'zbekiston aholisi 2050-yilgacha prognozining GAT texnologiyasiga asoslangan xaritasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqa iqtisodiyotini rivojlanishini prognozlashtirishga ilmiy yondashuvlar va uni geoaxborot texnologiyalari bilan bog'liqligini tadqiq etish;

mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanishni xorij tajribasini qiyosiy tahlilini amalga oshirish va tizimlashtirish;

Namangan viloyati mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va ularni hududiy-tarmoq tarkibini kartografik usulda tahlil qilish;

geoaxborot texnologiyalari asosida mintaq iqtisodiyotini prognozlashtirishga uslubiy yondashuvlar va diagnostika qilish indikatorlarini ishlab chiqish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini tadqiq etish;

mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tahlilida geoaxborot texnologiyalarini katta ma'lumotlar (Big Data) bilan integratsiyalashuvi imkoniyatlarini aniqlash;

hududning demografik jarayonlarini GAT yordamida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liqligini tadqiq qilish;

Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini 2030-yilgacha prognozlashtirish parametrlarini geoaxborot texnologiyalari asosida ishlab chiqish;

Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirishini geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududlari va Namangan viloyati olingan.

Tadqiqotning predmeti geoaxborot texnologiyalari asosida mintaq iqtisodiyotini prognozlashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida strategik tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, monografik kuzatuv, kartografik, grafik tasvirlash, statistik tahlil va ekonometrik modellashtirish, ekspert baholash, kata ma'lumotlarni qayta ishlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni GAT-texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda "hududiy analitika - prognoz - strategiya - ishlab

chiqarish kuchlarini joylashtirish” komponentlarining integratsiyasi orqali takomillashtirilgan;

demografik jarayonlarning Namangan viloyati tumanlari kesimida iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash koeffitsienti (SR) darajasiga ko‘ra, nisbatan qulay demografik muhitga ega ($SR \geq 0,61$) va demografik yuklama nisbatan yuqori bo‘lgan ($SR \leq 0,60$) guruhlariga ajratish orqali ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishni strategik ustuvorliklarini aniqlashga uslubiy yondashuv takomillashtirilgan;

hududiy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ekonometrik modellashtirish yordamida Namangan viloyati sanoatining 2030-yilgacha bo‘lgan istiqbolli parametrlari tumanlar kesimida ishlab chiqilgan;

Namangan viloyatida ishlab chiqarish kuchlarini ratsional joylashtirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishni GAT bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

interaktiv axborot-tahliliy xarita turli iqtisodiy va ijtimoiy ma’lumotlarni yagona platformada birlashtirish orqali infratuzilma rivoji, aholi bandligi, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari va ekologik holati haqidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini bergan;

foydalanuvchilar tahliliy xarita orqali hududlarni tanlash, ko‘rsatkichlarni saralash va turli grafikalar orqali ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega ekanligi asoslangan;

katta ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlili asosida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasini prognoz qilish va hududlarning rivojlanish salohiyatini baholashga yordam bergan;

geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi samarali qarorlar qabul qilishni ta’minlaydi va mahalliy organlar, investorlar, tadbirkorlar va tadqiqotchilar uchun tahliliy ma’lumotlar bazasini yaratish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Dissertatsiyada O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilganligi, xalqaro tashkilotlar, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi materiallariga asoslangani, bevosita o‘rganilayotgan muammo, nazariy-metodologik yondashuvlar bilan mustahkamlanganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishga, hududiy rivojlanish dasturlari, strategiyalar va konsepsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuningdek, ular tumanlarning iqtisodiy salohiyatini baholash, hududlar bo‘yicha ochiq va tizimlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlardan interaktiv shaklda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, vizuallashtirish va modellashtirishning zamonaviy vositalarini taqdim etuvchi yagona axborot-tahliliy

xaritani yaratish orqali mahalliy boshqaruv tizimida qarorlar qabul qilish sifatini sezilarli darajada oshirishga olib keladi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning hududiy bo'linmalari, mahalliy hokimliklarning ish faoliyatida va oliy o'quv yurtlari o'quv jarayonida keng foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning uslubiy yondashuvlari GAT-texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda "hududiy analitika – prognoz – strategiya – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish" komponentlarining integratsiyasining metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan (Namangan viloyati hokimligining 2026-yil 12- martdagi 02/10-1699-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida boshqaruv subyektlariga aynan o'z hududiga oid dolzarb va yangilangan prognoz natijalarini real vaqt rejimida ko'rish va boshqa komponentlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish indikatorlarini aniqlash, resurs taqchilligi yoki muammoli hududlarni kompleks tahlil qilish imkoniyati ham yaratildi;

demografik jarayonlar va ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik geoaxborot texnologiyalari asosida kompleks tadqiq etildi hamda Namangan viloyati va uning tumanlari iqtisodiy qo'llab-quvvatlash koeffitsienti (SR) ko'rsatkichlari asosida tipologik guruhlariga ajratildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, I guruh - nisbatan qulay demografik muhitga ega hududlar (Mingbuloq, Pop, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari) bo'lib, ularda mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori darajada shakllangan ($SR \geq 0,61$). II guruh - demografik yuklama nisbatan yuqori bo'lgan hududlar (Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on va Chortoq tumanlari) bo'lib, ularda mehnat resurslariga yuklama yuqoriroq darajada namoyon bo'ldi ($SR \leq 0,60$) (Namangan viloyati hokimligining 2026-yil 12-martdagi 02/10-1699-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklif O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida o'z aksini topgan va natijaning amaliyotga joriy etilishi hududlarda demografik dividendni hisoblash aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariga ta'sirini baholash imkonini berdi. Tumanlarni guruhlariga ajratish esa ishlab chiqarish kuchlarini hududlar kesimida oqilona joylashtirish hamda ularning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltirdi;

hududiy resurslardan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ekonometrik modellashtirish yordamida Namangan viloyati sanoatining 2030-yilgacha

bo'lgan istiqbolli parametrlari tumanlar kesimida ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy natija O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 4-ilovasi 25-bandida belgilangan tegishli hudud, tarmoq va sohadagi iqtisodiy tahdid va kutilmalar, prognoz va turli ssenariylar asosida tahlilning amalga oshirish vazifalarining ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan (Namangan viloyati hokimligining 2026-yil 12-martdagi 02/10-1699-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijaning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar kesimida iqtisodiy-ijtimoiy tarmoqlarni manzilli rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash hamda past va o'rta darajadagi hududlar uchun ustuvor rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyati ta'minlangan;

Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirishini geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi tumanlar kesimida ishlab chiqildi va analitik natijalar asosida tumanlar kesimida prognozlash jarayonlarini amalga oshirish orqali strategik rejalashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar bashorati, real vaqtli hududiy xaritalar, shuningdek xalqaro taqqoslashlar va ustuvor yo'nalishlarni shakllantirilgan (Namangan viloyati hokimligining 2026-yil 12-martdagi 02/10-1699-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natija O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda PQ-394-son "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori II bo'lim (d) bandida belgilangan "hududlarda boshqaruvni to'liq raqamlashtirish, shu jumladan, geoaxborot tizimlari, ochiq ma'lumotlar platformalari va interaktiv onlayn kuzatuv vositalarini joriy qilish" vazifasining ijrosini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur ishning tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishining asosiy g'oyalari va mazmunini aks ettirgan jami 22 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan jurnallarda 9 ta maqola va 2 ta xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib umumiy hajmi 146 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon qilinib, tadqiqot usullari izohlangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi hamda aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning nazariy asoslari va uni geoaxborot texnologiyalari bilan o'zaro bog'liqligi”** deb nomlanib, unda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish konsepsiyalari, ilmiy yondashuvlari, mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirishning shart-sharoitlari, geoaxborot texnologiyalari doirasida “mintaqaviy analitika - prognoz -strategiya - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish” komponentlarining integratsiyasi, geoaxborot texnologiyalaridan foydalanishni xorij tajribasi va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlar iqtisodiy tahlil va bashorat usullarini qo'llashni talab qiladi. Ushbu jarayonda turli metodologiyalarni uyg'unlashtirish, mintaqaviy iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlarini chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish muallifga mintaqaviy iqtisodiyotda ma'lumotlarni to'plash, saqlash, vizualizatsiya va prognoz qilish, shuningdek, hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslarini tahlil qilish uchun mo'ljallangan geoaxborot texnologiyalari imkoniyatlariga alohida e'tibor berishni talab etadi.


Muallifning fikricha, mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish - bu hududlar darajasida iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning istiqbolini aniqlashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy jarayondir. Uning metodologik asoslari hududiy farqlilikni, tabiiy resurslar salohiyatini, demografik va mehnat resurslari tarkibini, ishlab chiqarish va iste'mol tarkibini, shuningdek, infratuzilmaviy imkoniyatlarni chuqur tahlil qilishni talab etadi. Bunday yondashuvlar asosida ishlab chiqiladigan prognozlar mahalliy hokimiyatlar hamda davlat boshqaruvi organlari uchun strategik qarorlar qabul qilishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, geoaxborot texnologiyalari va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida tayyorlangan prognozlar mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda aniqlik va moslashuvchanlik darajasini oshiradi.

Respublikada strategik rejalashtirish va prognozlashning yagona tizimini shakllantirish maqsadida “...chuqur ilmiy tadqiqotlar, tendensiyalar va prognozlarni xolisona tahlil qilish asosida davlat siyosatining strategik ustuvorliklarini belgilash va amalga oshirish”⁹ masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mazkur

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-oktabrdagi “Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-201-son Farmoni

yondashuvlarni shakllantirish jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mintaqaviy siyosatni amalga oshirish uchun turli manbalardan shakllanuvchi katta hajmdagi ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va saqlash zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birga, prognoz hujjatlarini ishlab chiqish (ularning aniqlik darajasi – Forecasting Accuracy), rivojlanish strategiyalarini belgilash hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq masalalarga samarali yechim topish talab etiladi.

Shu munosabat bilan tadqiqot jarayonida mintaqaviy rivojlanishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish doirasida “hududiy analitika – prognoz – strategiya – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish” komponentlaridan yagona integratsiyalashgan tizim sifatida foydalanish taklif etilgan (1-rasm).



1-rasm. Geoaxborot texnologiyalari doirasida “hududiy analitika - prognoz -strategiya - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish” komponentlarining integratsiyasi¹⁰

Bu mahalliy boshqaruv organlariga aynan o'z hududiga oid dolzarb muammolar va prognoz natijalarini real vaqt rejimida ko'rish va tahlil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizim ogohlantirish indikatorlarini aniqlash, resurs taqchilligi mavjud muammoli hududlarni (hududning o'ziga xos raqobatbardosh ustunliklari yoki ekologik murakkab mintaqaligi) kompleks tahlil qilish imkoniyatini ham yaratadi.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Shunday qilib, mazkur yondashuvning amaliy natijalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

geoaxborot texnologiyalari yordamida hududlarning geografik va statistik ma'lumotlari yagona tizimda integratsiyalashib, prognozlar, qatlamli xaritalar (tabiiy resurslar, infratuzilma, demografiya, ekologik cheklovlar va b.) ishlab chiqiladi;

strategiyalar (aqlli ixtisoslashuv, tarmoqlar raqobatbardoshligi va b.) va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish (lokatsiya, siting) dasturlari vizual tarzda tumanlar kesimida namoyon bo'ladi;

investorlar, biznes vakillari, ekspertlar, davlat boshqaruvi organlari hamda tadqiqotchilarga hududlar bo'yicha ochiq ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Tadqiqotda prognozlash jarayonida ma'lumotlar manbalarini tanlash va tahlil qilish, geoaxborot tizimlari asosida makroiqtisodiy hamda hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini o'rganish, shuningdek, katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt algoritmlaridan foydalanish muhim o'rin tutadi (hududiy analitika - mashinaviy o'qish modellari: Random Forest, XGBoost, K-means, DBSCAN Graph Neural Networks, mintaqaviy prognozlashtirish - chuqur o'rganish usullari: LSTM, Temporal Convolutional Network, Transformer-based forecasting).

Mazkur yondashuvlar prognozlarning aniqligini oshirib, sun'iy intellekt texnologiyalari, ekonometrik usullar, statistik-matematik modellar hamda hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda modellashtirish vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlarning samaradorligi ko'p qirrali bo'lib, u hududiy rivojlanish jarayonlarini kompleks tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish, barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash hamda strategik qarorlar qabul qilishda yuzaga keladigan xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Natijada, mintaqaviy prognozlash tizimi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini oshirish, mavjud nomutanosibliklarni qisqartirish va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi, hamda milliy fazoviy ma'lumotlar infratuzilmasini bir qismiga aylanadi.

Geoaxborot texnologiyalar va sun'iy intellektni integratsiyalash asosida shakllantirilgan prognozlash tizimi nafaqat iqtisodiy jarayonlarni aniq baholash, balki mintaqaviy siyosatni shakllantirishda ham ilmiy asos bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish uchun muhim dastak bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasi hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hozirgi holati va tendensiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va ularni hududiy-tarmoq tarkibi tahlil qilingan, geoaxborot texnologiyalari asosida Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlili amalga oshirilib, geoaxborot texnologiyalari asosida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishga uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasida qo'llanilgan mexanizmlar hamda kartografik vositalardan mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, mamlakatimiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini strategik tahlil qilish maqsadida “...hududlarda boshqaruvni to'liq

raqamlashtirish, jumladan, geoaxborot tizimlari, ochiq ma'lumotlar platformalari va interaktiv onlayn kuzatuv vositalarini joriy etish"¹¹ vazifasi belgilab berilgan.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, ularning ko'lami, amaliyotda qo'llanilish darajasi hamda funksional imkoniyatlarini o'rganish asosida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish va prognozlashtirish uchun yagona va ochiq ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiluvchi hududiy axborot-tahliliy xatitasini ishlab chiqish taklif etildi.

Dissertatsiya ishida taklif etilgan hududiy axborot-tahliliy xaritani loyihalash (pilot rejimda To'raqo'rg'on tumani misolida, "elektron hukumat" tizimining tarkibiy qismi sifatida) tuman miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashtirishning uslubiy asoslarini sezilarli darajada takomillashtiradi.

1-jadval

Mintaqalarni rivojlantirishda kartografik usullardan foydalanish tajribasi¹²

№	Maqsadlar	Misr investitsiya xaritasi	Jahon Banki xaritalari	Electricity Maps, Fransiya	World Population Review, AQSh	Qishloq xo'jaligi vazirligi geoportali	O'zbekiston aholi dinamikasi geoportali	Hududiy axborot-tahliliy xarita
1	Hududlarni aniq geografik joylashuvi	+	+	+	+	+	+	+
2	Hududiy infratuzilmasini rivojlanish holati	+	-	+	+	-	+	+
3	Grafik va kartografik vositalar orqali ma'lumotlarni taqdim etish	+	+	-	+	+	+	+
4	Tizimni yangi indikatorlar bilan boyitish	+	+	+	+	+	+	+
5	Sun'iy intellekt algoritmlari bilan integratsiyasi	-	-	-	-	-	-	+
6	Analitika va monitoring tizimi	+	+	+	+	+	-	+
7	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish	-	-	-	-	-	-	+
8	Prognozlashtirish usullari	-	-	-	-	-	-	+
9	Ochiq ma'lumotlar platformasi	+	+	+	+	-	+	+

Ushbu yondashuv ochiq ma'lumotlar platformasini yaratish, axborotni jadval, matn, grafik va kartografik shakllarda taqdim etishni ta'minlash orqali tahliliy materiallarni tayyorlash jarayonida xatoliklar ehtimolini hamda "inson omili" ta'sirini

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 29-dekabrda "Strategik rejalashtirish va rivojlanish tizimini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish va samarali yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-394-son Qarori.

¹² Muallif tomonidan tayyorlangan.

kamaytirib, ma'lumotlarning tezkorligi va sifatini oshiradi (Data Quality & Relevance).

Shuningdek, muallifning fikricha mazkur axborot-tahliliy xarita mavjud yondashuvlarning asosiy kamchiliklari, ya'ni "hududiy analitika - prognoz -strategiya - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish" komponentlarini alohida qo'llashdan yagona, integratsiyalashgan tizim sifatida taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotda muallif tomonidan quyidagi guruhlar bo'yicha diagnostikani absolyut va nisbiy indikatorlari tavsiya etilgan: iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, ekologik va boshqalar. Ular hududlarning investitsion jozibadorligini baholash, energiya va suv sig'imi, innovatsion mahsulotlar ulushi, va raqobatbardoshlik ustunliklaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish imkonini beradi. Shuningdek, hududlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlili ma'lum tafovutlar mavjudligidan dalolat beradi (2-jadval).

2-jadval

Hududlar kesimida aholi zichligi va yalpi hududiy mahsulotni (aholi jon boshiga) o'zgarish dinamikasi¹³

Viloyatlar	2020				2025			
	Aholi zichligi		YaHM, aholi jon boshiga		Aholi zichligi		YaHM, aholi jon boshiga	
	1 kv.km., kishi	indeks ming so'm	indeks	1kv.km.,	kishi	indeks	ming so'm	indeks
O'zbekiston Respublikasi	75,5	1,000	20596,9	1,000	83,6	1,000	48816,4	1,000
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11,4	0,151	13676,9	0,664	12,2	0,146	26489,5	0,543
<i>viloyatlar:</i>								
Andijon	727,4	9,634	13964,3	0,678	804,9	9,628	30852,1	0,632
Buxoro	47,8	0,633	18921	0,919	51,6	0,617	41399,1	0,848
Jizzax	65,2	0,864	14947,8	0,726	72,5	0,867	34116,8	0,699
Qashqadaryo	114,8	1,521	12787,2	0,621	127,4	1,524	26856,9	0,550
Navoiy	9,0	0,119	60002,4	2,913	9,9	0,118	152238,2	3,119
Namangan	377,8	5,004	12035,2	0,584	420,9	5,035	27020,6	0,554
Samarqand	231,2	3,062	12686,5	0,616	256,3	3,066	28001,8	0,574
Surxondaryo	130,8	1,732	10747,1	0,522	146,5	1,752	22223,4	0,455
Sirdaryo	197,7	2,619	17194	0,835	217,5	2,602	38137,2	0,781
Toshkent	192,9	2,555	25317,1	1,229	205,3	2,456	57480,2	1,177
Farg'ona	555,0	7,351	12058,4	0,585	613,1	7,334	26603,6	0,545
Xorazm	308,5	4,086	13122,2	0,637	335,9	4,018	30713,5	0,629


¹³ Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Toshkent sh.	7699,6	101,981	42189,7	2,048	6948,1	83,111	116747,3	2,392
--------------	--------	---------	---------	-------	--------	--------	----------	-------

Mazkur jadvaldan ko‘rinadiki, 2020-2025 yillarda O‘zbekiston hududlari bo‘yicha aholi zichligi umumiy o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, ayniqsa Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Aholi zichligining ortishi hududlarda mehnat resurslari salohiyatini oshirayotgan bo‘lsa-da, bu holat ijtimoiy infratuzilma va bandlikka bo‘lgan bosimni kuchaytiradi. Jon boshiga yalpi hududiy mahsulot ko‘rsatkichlari esa hududlar o‘rtasida sezilarli differensiallashuv mavjudligini ko‘rsatadi. Xususan, Navoiy va Toshkent viloyatlarida yuqori iqtisodiy ko‘rsatkichlar kuzatilsa, aholisi zich hududlarda (Farg‘ona vodiysi viloyatlari) bu ko‘rsatkich nisbatan past darajada qolmoqda. Bu esa ishlab chiqarish kuchlarini hududiy joylashtirishda nomutanosiblik mavjudligini anglatadi va istiqbolda iqtisodiy faollikni resurslarga boy hamda aholi zichligi yuqori hududlarga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyatida 2020-2025-yillar mobaynida iqtisodiyotni barcha asosiy yo‘nalishlarida, ya‘ni investitsiya oqimlari, sanoat va xizmatlar sektorining o‘shishi kuzatildi (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHMni ishlab chiqarishda Namangan viloyatining ulushi (2025, % da)¹⁴

Tahlillar ko‘rsatishicha, yalpi hududiy mahsulot va tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati bo‘yicha viloyat ko‘rsatkichlari respublika o‘rtacha darajasiga

¹⁴ Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

yaqin shakllangan bo'lsa-da, ayrim tarmoqlarda sezilarli tafovutlar mavjud. Xususan, sanoat tarmog'ida viloyat ulushi respublika ko'rsatkichlariga nisbatan pastroq bo'lib, bu sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida viloyat ko'rsatkichi nisbatan yuqori bo'lib, bu hududda ixtisoslashuv jarayonlarini faol kechayotganligini anglatadi.

Namangan viloyati iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sektori yetakchi o'rin egallab, hududda bandlikni ta'minlashda aynan shu tarmoq ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

SWOT-tahlili asosida aniqlangan muhim muammolar sifatida dissertatsiya ishida investitsiyalar o'sish yetarli darajada emasligi, xorijdan jalb qilinayotgan investitsiyalar tarkibida xususiy korxonalar mablag'lari ulushining kamligi hamda sanoat tarmoqlariga investitsiyalar kirib kelishining sustligi (Norin va Kosonsoy tumanlari)ni qayd etish mumkin. Shu bilan birga, rekreatsion turizm salohiyatining mavjudligi (Chortoq, Kosonsoy tumanlari), ishlab chiqarish, eksport va savdo faoliyati asosan viloyat markazi -Namangan shahrida jamlanib qolayotgani hamda uzoq qishloq tumanlarining shahar hududlariga nisbatan sezilarli darajada ortda qolayotgani muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Viloyatning investitsion faoliyatidagi asosiy imkoniyatlar esa To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasining barpo etilishi natijasida yuqori energiya ta'minoti salohiyatining shakllangani bilan izohlanadi.

Shuningdek, SWOT-tahlil natijalariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari va chorvachilikni rivojlantirishda ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish (Kosonsoy va Pop tumanlari), qayta ishlash sanoatini rivojlantirish (To'raqo'rg'on tumani) tumanlar ixtisoslashuvini chuqurlashtirish imkonini beradi. Mazkur jarayonlar qo'shilgan qiymat zanjiri doirasida raqobatbardosh modullar (klasterlar)ni shakllantirish va rivojlantirish asosida agro-oziq-ovqat majmuasini innovatsion modernizatsiya qilishga zamin yaratadi. Shuningdek, IT-texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish (IT-park, Namangan shahri) raqamlashtirish darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mintaqa sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish bilan bir qatorda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish vazifasi dolzarb ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda Namangan viloyatida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi oshgan bo'lsa-da, tumanlar o'rtasidagi tafovutlar saqlanib qolgan. To'raqo'rg'on tumani va Namangan shahri yuqori rivojlangan hududlar sifatida yetakchilik qilgan. Bundan tashqari, Uchqo'rg'on, Pop, Chortoq, Norin hamda Yangiqo'rg'on tumanlarida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti hajmi nisbatan past darajada ekanligi kuzatilgan. Bu holat viloyatda sanoat ishlab chiqarish darajasi tumanlar kesimida nomutanosib taqsimlanganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, olingan analitik natijalar asosida prognozlash jarayonlari amalga oshiriladi, jumladan resurslar ta'minoti, iqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi, real vaqt rejimidagi hududiy prognozlar, tarmoq va soha prognozlari, shuningdek xalqaro taqqoslashlar va strategik yo'nalishlarni shakllantirish ishlari olib boriladi.

Namangan viloyati aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish darajasi bo'yicha tumanlar tipologiyasi(2025 y)¹⁵

Tumanlar	Jami aholi, (ming kishi)	Sanoat mahsuloti hajmi, (mlrd. so'm)	Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (ming so'm)	Indeks	O'rin
Namangan viloyati	3131,7	40087,4	12680,9	1,000	-
Nisabtan yuqori rivojlangan hududlar					
To'raqo'rg'on	250,7	6632,3	26196,3	2,066	1
Namangan sh.	713,4	11975,8	16617,3	1,310	2
O'rtacha rivojlangan hududlar					
Chust	291,4	3251,2	11056,5	0,872	3
Namangan	197,1	1936,0	9722,6	0,767	4
Uychi	237,5	2058,8	8579,9	0,677	5
Kosonsoy	233,1	1831,5	7781,1	0,614	6
Mingbuloq	139,8	540,4	3906,4	0,548	7
Past rivojlangan hududlar					
Uchqo'rg'on	188,7	1030,6	5417,1	0,427	8
Pop	239,8	755,4	3177,4	0,323	9
Chortoq	219,2	699,3	3221,9	0,379	10
Norin	179,1	367,4	2070,1	0,296	11
Yangiqo'rg'on	241,8	485,5	2027,4	0,187	12


Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish**” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari aniqlangan va ularni katta ma’lumotlar (Big Data) bilan integratsiyalashuvi asoslangan. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va ularni demografik jarayonlar bilan bog‘liqligi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish parametrlari ishlab chiqilgan. Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlarini aks ettiruvchi interaktiv axborot-tahliliy xarita shakllantirilgan.

Tadqiqotda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishda sun’iy intellekt va geoaxborot texnologiyalarining integratsiyalashgan modeli muallif tomonidan taklif etilgan. Ushbu yondashuv bir nechta funksional bosqichlardan iborat bo‘lib, ular hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi (3-rasm).

Fikrimizcha, SI va GAT doirasida “hududiy analitika – prognoz – strategiya – ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish” komponentlarining integratsiyasi resurslarni

¹⁵ Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

optimallashtirish va tumanlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. SI va GATning uyg'unligi prognozlash aniqligini oshirish, hududlar bo'yicha investitsion va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi (<https://prognoz-mzjo.onrender.com>)¹⁶. Shunday qilib, ushbu model urbanizatsiya, infratuzilma, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari monitoringi va hududiy analitika jarayonlarini tizimli ravishda shakllantirish imkoniyatini beradi.



3-rasm. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishning geoaxborot texnologiyalari va sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan modeli¹⁷

Tadqiqot ishida Namangan viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni demografik jarayonlar bilan bog'liqligi quyidagi ko'rsatkichlar orqali aniqlandi:

a) iqtisodiy qo'llab-quvvatlash koeffitsienti (support ratio-SR), mintaqaning demografik dividendini baholash:

$$SR = W/P \quad (1)$$

W – mehnatga layoqatli aholi soni (16-59 yosh);

P – umumiy aholi soni.

¹⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan geoaxborot va sun'iy intellect integratsiyasiga asoslangan platforma

¹⁷ Muallif tomonidan tuzilgan.

b) Blum va Uilyamson formulasi, o'sish sur'atlariga hissa:

$$\Delta y = \Delta(W/P) = g_w - g_p, \quad (2)$$

Δy – demografiya hisobidan jon boshiga daromadning yillik o'sishi (demografik dividend effekti);

g_w – mehnatga layoqatli aholi o'sish sur'ati;

g_p – umumiy aholi soni o'sish sur'ati.

d) demografik yuklama ko'effitsientini (Dependency Ratio) baholash:

$$k = (n_1 + n_3) / n_2 \times 100, \quad (3)$$

n_1 – bolalar (0-15 yosh)

n_2 – mehnatga layoqatli aholi (16-59 yosh)

n_3 – keksalar (60+ yosh)

Shu nuqtai nazardan, dissertatsiyada o'rganilgan natijalar asosida demografik ma'lumotlar Namangan viloyati va uning tumanlari kesimida tahlil qilinib, iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ko'effitsienti (SR), demografik dividend effekti (Δy) hamda demografik yuklama ko'effitsienti (k) ko'rsatkichlari asosida hududlar ikki tipologik guruhga ajratildi va hisob kitob natijalari yaxlitlab olindi.

I guruh - nisbatan qulay demografik muhitga ega hududlar (Mingbuloq, Pop, Chust va Yangiqo'rg'on tumanlari) bo'lib, mazkur hududlarda mehnatga layoqatli aholi ulushi nisbatan yuqori darajada shakllangan va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ko'effitsienti yuqori qiymatga ega ($SR \geq 0,61$). Ushbu demografik holat hududlarda mehnat resurslarining yetarliligini ta'minlab, iqtisodiy faollikni kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi hamda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bois bunday hududlarda ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarni, jumladan tekstil klasterlari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, agrohablar va elektrotexnika sanoatini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

II guruh - quyidagi hududlarda (Namangan shahri, Kosonsoy, Namangan, Norin, To'raqo'rg'on, Uychi, Uchqo'rg'on va Chortoq tumanlari) iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ko'effitsienti nisbatan pastroq darajada shakllangan ($SR \leq 0,60$). Mazkur tumanlarda mehnat resurslariga tushadigan demografik yuklama yuqoriroq bo'lib, demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri nisbatan cheklangan holda namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu hududlarda iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish maqsadida ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mehnat resurslarini zamonaviy kasb va ko'nikmalarga yo'naltirish, logistika va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirish hamda ilm talab tarmoqlarni, xususan IT-texnologiyalari, energetika, elektronika va farmatsevtika sohalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, geoaxborot texnologiyalari (ArcGIS, QGIS va b.) asosida hududiy strategik rejalashtirishni takomillashtirish hamda ishlab chiqarish obyektlarini optimal joylashtirish zarur hisoblanadi (4-jadval).

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020-2025 yillar davomida ayrim tumanlarda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari nisbatan barqaror saqlanib qolgan bo'lsa-da, demografik jarayonlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'siri tumanlar kesimida

turlicha namoyon bo'lgan. Bu esa hududiy iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda demografik yuklama darajasi hamda mehnat resurslari dinamikasini hisobga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatdi.

4-jadval

Namangan viloyati va tumanlari bo'yicha demografik dividendni baholash¹⁸

Hududlar	Iqtisodiy qo'llab-quvvatlash koeffitsienti (SR)		Demografik dividend effekti(Δy)		Demografik yuklama koeffitsienti (k)	
	2020	2025	2020	2025	2020	2025
Namangan viloyati	0,62	0,59	-1,4	-1,0	64,4	72,6
Namangan shahri	0,60	0,57	-0,7	-0,8	71,2	79,3
Mingbuloq	0,65	0,62	-0,4	-1,1	58,0	63,4
Kosonsoy	0,62	0,59	-2,0	-0,9	66,1	74,8
Namangan	0,61	0,60	-2,7	-0,8	64,4	71,2
Norin	0,61	0,59	-1,7	-0,8	65,8	73,3
Pop	0,64	0,61	-1,1	-1,1	59,4	67,1
To'raqo'rg'on	0,62	0,58	-2,6	-2,0	63,9	76,7
Uychi	0,62	0,60	-1,1	-0,6	65,3	71,4
Uchqo'rg'on	0,62	0,60	-1,2	-1,0	63,3	70,6
Chortoq	0,62	0,60	-1,4	-0,8	63,9	71,0
Chust	0,63	0,60	-1,7	-1,2	60,4	71,3
Yangiqo'rg'on	0,64	0,61	-1,0	-0,9	58,5	65,8
	$SR = W/P$		$\Delta y = \Delta(W/P) = g_w - g_p$		$k = (n_1 + n_3)/n_2 \times 100$	

Ta'kidlash joizki, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sanoat sektorining ahamiyati yuqoridir. Shu sababli Namangan viloyati tumanlari kesimida sanoat tarmoqlarini rivojlanish darajasi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi hamda uning hududiy boshqarmalarining rasmiy axborotlari asosida jamlandi, tizimlashtirildi va tahlil uchun qayta ishlandi (2010-2025 yillar). Shu bois hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmini tahlil qilish, dinamikasini baholash va prognozlash (ekonometrik usullar) hamda sanoat obyektlarini joylashtirish tadqiqotda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish orqali asoslandi.

Natijaviy ko'rsatkich (Y) sifatida hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi, (mlrd so'm) qabul qilindi. Izohli omillar sifatida hududiy iqtisodiy faollik va demografik jarayonlarni ifodalovchi X1-asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm), X2-qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm), X3-xizmatlar hajmi (mlrd so'm), X4-qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi (mlrd so'm), X5-faol korxonalar soni (ta), X6-aholi soni (ming kishi), X7-bandlar soni (ming kishi) hamda X8- ishsizlik darajasi (%) ko'rsatkichlari tanlandi. Dissertatsiya ishida ushbu omillar Mingbuloq tumanini 2030 yilgacha sanoat mahsuloti hajmini prognoz parametrlarini ishlab chiqishda

¹⁸ Muallif tomonidan statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan (2020 va 2025-yillar 1-yanvar holatiga ko'ra).

hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi (5-jadval).

5-jadval

Namangan viloyatida sanoat mahsuloti hajmiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar¹⁹

Yillar	Sanoat mahsuloti hajmi (mlrd so' m)	Asosiy kapitalga o' zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd so' m)	Qurilish ishlari hajmi (mlrd so' m)	Xizmatlar hajmi (mlrd so' m)	Qishloq xo' jaligi mahsuloti hajmi (mlrd so' m)	Faol korxonalar soni (ta)	Aholi soni (ta)	Bandlar soni (ta)	Ishsizlik darajasi (%)
t	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8
2010	43,3	18,3	12,2	33,9	118,7	528,0	98,7	47,5	5,2
2011	33,9	24,0	17,0	47,3	181,4	626,0	106,5	49,3	5,0
2012	43,5	31,0	20,9	61,1	210,4	636,0	108,2	50,2	4,9
2013	51,2	38,8	24,6	86,7	244,0	609,0	109,9	52,1	4,8
2014	14,0	51,5	36,9	98,5	295,2	617,0	111,9	53,0	4,8
2015	74,5	46,7	42,0	103,8	351,6	639,0	114,2	55,1	4,8
2016	86,8	70,2	49,2	138,2	405,4	675,0	116,4	49,8	5,5
2017	79,3	139,9	46,1	158,9	559,3	715,0	118,5	51,3	6,0
2018	139,2	321,0	93,0	196,4	706,0	756,0	120,6	51,3	10,1
2019	144,5	275,2	158,6	318,9	866,7	859,0	123,1	53,1	9,6
2020	545,7	295,6	134,7	362,0	1081,3	1111,0	125,7	52,8	11,1
2021	623,6	354,0	260,9	485,9	1514,2	1371,0	128,4	53,1	10,2
2022	751,0	454,8	263,4	608,3	1908,1	1543,0	131,2	52,2	9,0
2023	648,5	473,1	285,5	728,5	1992,9	1654,0	134,0	56,7	6,9
2024	540,4	1123,9	397,6	903,7	2168,7	1296,0	136,9	59,2	5,5
2025	899,5	1943,4	561,3	1087,2	2 789,1	1229,0	139,8	61,8	5,1

Mingbuloq tumani bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga kuchli ta'sir etuvchi quyidagi ko'rsatkichlar tanlab olindi: asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, bandlar soni, faol korxonalar soni va ishsizlik darajasi (6-jadval).

Model diagnostikasi natijalari shuni ko'rsatdiki, regressiya tenglamasida multikolinearlik muammosi aniqlanmadi. Xususan, barcha mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha VIF ko'rsatkichlari 2-2,5 oralig'ida bo'lib, qabul qilingan me'yoriy chegaradan ($VIF < 5$) past qiymatlarni tashkil etdi. Bu esa izohli omillar o'rtasida kuchli o'zaro bog'liqlik mavjud emasligini tasdiqlaydi. Breusch-Pagan testi natijalari ($p \approx 0,99 > 0,05$) regressiya qoldiqlarining dispersiyasi barqaror ekanini, ya'ni geteroskedastiklik kuzatilmaganini ko'rsatdi.

¹⁹ Muallif tomonidan statistika qo'mitasining 2010-2025-yillar ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Mingbuloq tumani sanoat mahsuloti hajmi (lnY) bo'yicha regressiya tahlili natijalari²⁰

Statistic	Value					
Number of obs	15					
R-squared	0.9342					
Adj R-squared	0.8921					
F-statistic	24.9134					
Prob>F	0.000009					
Root MSE	0.3985					
AIC	21.8743					
BIC	25.4201					
Variable	Coef.	Std. Err.	t	P> t	CI95L	CI95U
cons	1.2847	2.8473	0.4512	0.6608	-5.0481	7.6175
lnX1	0.3124	0.1096	2.8513	0.0158	0.0735	0.5513
lnX5	0.2687	0.0924	2.9076	0.0142	0.0669	0.4705
lnX7	0.1835	0.0817	2.2458	0.0441	0.0051	0.3619
X8	-0.1216	0.0475	-2.5604	0.0267	-0.2248	-0.0184

Shuningdek, Durbin-Watson statistikasi 2,433 ga teng bo'lib, qoldiqlarda avtokorrelyatsiya mavjud emasligini va model vaqt qatori bo'yicha bog'liqliklarni ishonchli aks ettirishini tasdiqladi.

Shu asosda baholangan regressiya modeli orqali Mingbuloq tumanining sanoat mahsuloti hajmi 2026 -2030 yillar oralig'ida prognoz qilinib, natijalar maqsadli, bazaviy va resursli ssenariylar doirasida shakllantirildi:

$$\ln(Y_1) = 1.2847 + 0.3124 \cdot \ln(X1_t) + 0.2687 \cdot \ln(X5_t) + 0.1835 \cdot \ln(X7_t) - 0.1216 \cdot X8_t + ut \quad (4)$$

Prognoz natijalariga asosan, 2026-2030 yillarda maqsadli ssenariyda eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilib, sanoat hajmi ortadi, bazaviy ssenariyda esa barqaror o'sish saqlanadi. Resursli ssenariyda ham ijobiy dinamika mavjud bo'lsa-da, o'sish sur'atlari nisbatan past darajada shakllanadi.

Namangan viloyatining tumanlari va Namangan shahri bo'yicha prognozlash hisob-kitoblari aynan uchta ssenariyda, shu uslubiy ketma-ketlik asosida amalga oshirildi, yakuniy tahlil va solishtirishlar uchun esa iqtisodiy jihatdan maqbul yo'nalish sifatida maqsadli ssenariy natijalari tanlab olindi (7-jadval).


²⁰ Izohli omillar sifatida hududiy iqtisodiy faollik va demografik jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tanlab olindi, jumladan: lnX1 – asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd so'm), lnX5 - faol korxonalar soni (ta), lnX7 – bandlar soni (ming kishi) hamda X8 – ishsizlik darajasi (%).

Namangan viloyati tumanlari bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining prognoz ko'rsatkichlari²¹

Tuman Yil	Mingbuloq	Kosonsoy	Namangan	Norin	Pop	To'raqo'rg'on	Uychi	Uchqo'rg'on	Chortoq	Chust	Yangiqo'rg'on	Namangan sh
2010	43,3	43,0	70,2	41,2	74,4	62,2	65,5	133,2	26,5	50,5	28,5	368,5
2011	33,9	40,3	101,9	36,2	95,9	56,8	95,0	170,8	18,3	60,8	38,2	610,0
2012	43,5	39,5	140,5	57,1	117,9	76,7	108,0	190,2	26,4	69,2	43,5	703,1
2013	51,2	46,6	171,4	80,8	117,2	88,4	142,2	181,8	25,2	82,5	46,9	857,9
2014	14,0	51,7	152,6	45,7	62,1	68,8	98,0	133,3	34,1	73,7	75,6	603,5
2015	74,5	96,4	227,4	82,1	138,0	179,0	194,0	216,5	66,7	105,4	111,1	1370,7
2016	86,8	126,1	309,8	94,8	150,9	210,4	248,6	244,5	82,2	128,9	76,8	1715,9
2017	79,3	161,3	439,4	116,6	202,0	411,1	342,9	418,8	76,6	186,9	77,8	2102,8
2018	139,2	244,8	694,0	130,3	302,1	485,3	428,9	659,2	82,0	244,9	86,8	3089,1
2019	144,5	358,2	813,1	372,2	393,0	858,0	655,5	628,0	132,2	334,4	147,8	3981,2
2020	545,7	314,4	1036,3	316,2	506,2	1545,1	640,8	782,2	187,2	584,0	197,3	4356,5
2021	623,6	589,9	949,5	435,4	439,5	2511,8	891,3	834,7	282,5	801,1	244,9	6091,0
2022	751,0	970,2	1062,4	233,1	545,3	3368,4	1023,1	951,6	394,8	1483,6	279,9	7052,1
2023	648,5	1366,2	1186,0	300,7	523,7	4871,9	1258,1	801,2	538,8	1920,9	316,3	8174,6
2024	540,4	1843,3	1915,4	367,4	755,4	5875,9	1609,4	969,4	699,3	2491,5	485,5	10609,3
2025	899,5	1901,7	1988,2	621,3	894,8	6219,0	2158,2	1069,2	986,5	3201,0	600,6	11207,4
2026*	1121,3	2118,6	2223,7	781,6	1132,6	7423,5	2332,5	1182,3	1212,7	3682,4	661,8	13398,6
2027*	1259,8	2417,5	2518,9	889,5	1288,4	8258,1	2621,3	1348,7	1378,4	4138,6	748,9	15002,8
2028*	1413,6	2764,2	2852,3	1012,4	1471,2	9182,7	2943,8	1532,5	1561,2	4651,9	852,4	16748,1
2029*	1568,7	3138,9	3218,6	1139,8	1659,3	10148,6	3302,6	1729,4	1758,6	5221,6	958,7	18697,6
2030*	1742,1	3562,4	3642,8	1279,6	1872,6	11203,8	3698,4	1951,8	1982,4	5848,7	1078,9	20802,3

²¹ Muallif tomonidan hisob kitoblar asosida tayyorlandi

Tadqiqotda Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy prognozlanishini geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi tumanlar kesimida ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. Namangan viloyatining tumanlari kesimida sanoat tarmoqlarining prognoz parametrlari va joylashuvini interaktiv axborot-tahliliy xaritasi ²²

Mazkur axborot-tahliliy xarita Namangan viloyatida sanoat mahsuloti hajmining 2030-yilgacha mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini tumanlar kesimida vizuallashtirishga xizmat qiluvchi geoaxborot platforma hisoblanadi. Xarita rasmiy statistik ma'lumotlar asosida ArcGIS Pro dasturida shakllantirilib, ArcGIS Online dashboard dasturlarida interaktiv tarzda joylashtirilgan, prognoz natijalarini yillar va tumanlar kesimida taqqoslash hamda ularning dinamik o'zgarishlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi (<https://regionaleconomy.maps.arcgis.com/apps/dashboards/efc6c0fc5ff4f86a789a4955c14ae4f>).²³

Ushbu axborot-tahliliy xarita prognozlashtirish jarayonida sanoat ishlab chiqarishining hududiy differensiallashuvini aniqlash, tumanlar kesimida "o'sish nuqtalarini" belgilash hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini kompleks baholashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u sanoat mahsuloti prognoz ko'rsatkichlarini transport infratuzilmasi, resurslar va mehnat salohiyatining hududiy joylashuvi bilan bog'liqligini tahlil qilish imkonini beradi. Natijada ishlab chiqarish kuchlarini hududlar kesimida joylashtirish, investitsiya resurslarini maqsadli yo'naltirish va mintaqaviy sanoat siyosatini ilmiy asoslash uchun muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

²²Muallif tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasining online ko'rinishi

XULOSA

Mazkur dissertatsiya ishida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi hamda belgilangan maqsad va vazifalarga to'liq erishildi, jumladan:

1. Mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirishga ilmiy yondashuvlar va uni geoaxborot texnologiyalari asosida takomillashtirish nazariyasi tizimlashtirilib, ularni O'zbekiston Respublikasi hududlari shart-sharoitlarida qo'llash imkoniyati asoslab berildi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirishning geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi iqtisodiyotni boshqarishda muhim metodologik yondashuv sifatida namoyon bo'lishi asoslandi.

2. Mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish amalga oshirildi va umumlashtirildi. Ularning ko'lami, amaliyotda qo'llanilganlik darajasi va funksiyalarini o'rganish natijasida hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish va prognozlashtirish uchun yagona va kompleks ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiluvchi tizim taklif etildi.

3. Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va ularning hududiy-tarmoq tarkibi tahlil qilindi. Natijada, 2020-2025-yillar mobaynida viloyatning YAHM hajmi 2020-yildagi 34,1 trln so'mdan 2025-yilga kelib 71,9 trln so'mga yetib, 2,1 barobarga oshgani aniqlangan. Bu o'sish viloyat iqtisodiyoti tarkibida xizmatlar sektorini yetakchi o'rin egallashi va investitsion muhitning jozibadorligini ortishi bilan izohlanadi.

4. Geoaxborot texnologiyalari asosida mintaqa iqtisodiyotini prognozlashtirishga uslubiy yondashuvlarni shakllantirish jarayonida prognoz hujjatlarini ishlab chiqish, rivojlanish strategiyalarini belgilash hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish masalalarini yechish talab qilinadi. Shu munosabat bilan tadqiqot jarayonida mintaqaviy rivojlanishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanishda "hududiy analitika - prognoz - strategiya - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish" komponentlarini integratsiyasi asoslandi.

5. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini tadqiq etish shuni ko'rsatdiki, hududlarning statistik ma'lumotlari yagona tizimda integratsiyalashib, prognozlar, qatlamli xaritalar (tabiiy resurslar, infratuzilma, demografiya va ekologik cheklovlar), strategiyalar (aqlli ixtisoslashuv) hamda ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish (lokatsiya, siting) vizual tarzda namoyon bo'ladi. Bu boshqaruv subyektlariga aynan o'z hududiga oid dolzarb va yangilangan prognoz natijalarini real vaqt rejimida ko'rish va tahlil qilish imkoniyatini beradi.

6. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash jarayonida geoaxborot texnologiyalarini katta ma'lumotlar (Big Data) bilan integratsiyalashuvi imkoniyatlari aniqlangan, shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish taklif etilgan. Geoaxborot texnologiyalari, Big Data va sun'iy intellektni integratsiyalash asosida qurilgan prognozlash modeli nafaqat iqtisodiy jarayonlarni aniq baholash, balki mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

7. Demografik jarayonlar va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash natijasida Namangan viloyati hamda uning tumanlari ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga mehnatga layoqatli aholi ulushi nisbatan yuqori bo'lgan va demografik muhit qulay shakllangan hududlar ($SR \geq 0,61$) kiritildi. Ikkinchi guruh esa mehnat resurslariga tushadigan demografik yuklama yuqori bo'lgan hududlarni ($SR \leq 0,60$) qamrab oldi. Mazkur tasnif hududlarning mehnat resurslari salohiyatini aniqlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

8. Namangan viloyat sanoatini rivojlanishini 2030-yilgacha prognozlashtirish parametrlarini ekonometrik modellarga asoslanib, uning rivojlanish istiqbollari ishlab chiqildi. Ushbu model orqali tumanlar kesimida resurslarni taqsimlash, investitsiyalarni jalb etish va hududlarni raqobat ustunliklaridan foydalanadigan strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligi hamda mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyati asoslab berildi.

9. Namangan viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirish geoaxborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan interaktiv axborot-tahliliy xaritasi ishlab chiqildi. Analitik natijalar asosida tumanlar kesimida prognozlash jarayonlarini amalga oshirish orqali strategik rejalashtirish, iqtisodiy ko'rsatkichlar xisob-kitobi, real vaqt rejimida hududiy, tarmoq va soha prognozlari, shuningdek, qiyosiy taqqoslashlar va ishlab chiqarish kuchlarini fazoviy joylashtirish zarurati asoslab berildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.23.03
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЦЕНТР «НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ И
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА» ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФАЗЛИДДИНОВА ЗУЛХУМОР АКРАМЖОН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНО-
ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ НА ОСНОВЕ
ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

08.00.12 – Региональная экономика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2024.1.PHD/Iqt3879 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертационная работа выполнена в Научно-исследовательском центре «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Кадыров Абдурашид Маджитович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Эргашев Эркин Ирокович
доктор экономических наук, профессор

Валиев Бобур Батирович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни

Защита диссертации состоится в 16:00 часов « 4 » 09 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. (Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер № 2013). Адрес: 100066, город Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: ((99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан « 21 » 08 2026 года.

(протокол реестра № 15 от « 21 » 08 2026 года.)



Ш.Э. Синдаров
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

Ж.С. Файзуллаев
Секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

Т.С. Кучкаров
Председатель семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор экономических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современном мире обеспечение устойчивого развития региональной экономики выступает одной из наиболее актуальных задач глобального масштаба. В 2024-2026 годах темпы экономического роста в странах, на долю которых приходится более 80% мирового населения и глобального валового внутреннего продукта, остаются ниже уровня, наблюдавшегося в допандемийное десятилетие, предшествовавшее пандемии COVID-19¹. В 2025 году объем рынка геопространственной аналитики (Geospatial Analytics) в Германии оценивается в 1,45 млрд долларов США, и, по прогнозам, к 2030 году данный показатель достигнет 2,55 млрд долларов США². В связи с этим использование геоинформационных технологий в качестве инструмента прогнозирования регионального развития, а также исследование их структурных компонентов и влияния на формирование экономической политики представляют собой актуальную научную проблему.

Возможности анализа данных, картографической визуализации и разработки территориальных прогнозов с использованием геоинформационных технологий постоянно расширяются. В настоящее время развитые страны эффективно применяют данные технологии для решения социально-экономических и экологических проблем. В частности, наличие крупнейших мировых программных средств, таких как Earth Observation (EO), ArcGIS Living Atlas и другие, способствует стремительному развитию геоинформационных технологий в глобальном масштабе³. Технологии, реализованные в данных программах, обуславливают коренные изменения в системе обработки и анализа данных, оказывая непосредственное положительное влияние на образ жизни населения. Интеграция системы прогнозирования регионального социально-экономического развития с геоинформационными технологиями выступает важным методологическим подходом в управлении экономикой.

В Узбекистане вопросы цифровизации социально-экономического развития в настоящее время приобретают стратегическое значение⁴. В частности, в стратегии «Узбекистан - 2030» в качестве приоритетных направлений определены цифровизация экономики и эффективное управление региональным развитием. Геоинформационные технологии и алгоритмы искусственного интеллекта, служат фундаментальной основой для моделирования процессов урбанизации, демографической динамики и экономического роста. Рациональное использование данных технологий обеспечивает возможности повышения социально-экономической устойчивости территорий и оптимизации использования ресурсов. С этой точки зрения совершенствование системы

¹ World Bank. 2024. Global Economic Prospects, June 2024. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2058-8. <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/d644659c-2e22-410e-98a5b8a40dc6c183/content>

² <https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/germany-geospatial-analytics-market>

³ <https://shorturl.at/8RYrB>, <https://livingatlas.arcgis.com/en/home/>

⁴ Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № ПФ-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению реформ и их выведению на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года»

прогнозирования регионального развития на основе интеграции геоинформационных технологий и искусственного интеллекта, а также ее внедрение в процессы принятия управленческих решений, выступают одной из актуальных задач экономической науки.

Результаты проведенного исследования служат реализации задач, определенных в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан, в частности в Указе Президента Республики Узбекистан от 20 декабря 2024 года № УП-223 «О мерах по внедрению новой системы обеспечения высоких темпов экономического роста и занятости населения в регионах, а также повышению роли и ответственности местных органов власти в данном направлении», Указе Президента Республики Узбекистан от 30 октября 2025 года № УП-201 «Об организационных мерах по внедрению системы стратегического планирования и развития», Указе Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2026 года № УП-21 «О дополнительных мерах по последовательному продолжению реформ и их выведению на новый этап в рамках приоритетных направлений развития страны до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 1 мая 2020 года № ПП-4702 «О внедрении системы рейтинговой оценки социально-экономического развития регионов», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 14 октября 2024 года № ПП-358 «Об утверждении стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 29 декабря 2025 года № ПП-394 «О мерах по организации и эффективному внедрению системы стратегического планирования и развития на основе новых подходов», а также других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Духовно-нравственное и материально-духовное развитие демократического государства и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Структурные изменения социально-экономического развития регионов, вопросы прогнозирования региональной экономики, а также взаимосвязь эффективного использования ресурсов территорий и геоинформационных технологий исследованы многими зарубежными учеными. В частности, такие ученые, как Ч.Манас, W.Isard, M.Storper, Дж.Д.Джеффри, Н.Дугласс, М. Zeiler, А.М.Берлянт, М.Н.Демерс, В.П.Раклов, М.П.Глебов, Л.Е.Бирюков, И.Г.Вовк, Т.Ю.Бугакова, Л.Кляйн изучали территориальное распределение экономической активности с использованием геоинформационных технологий, а также разработали методы регионального анализа⁵.

⁵ Chatterji, Manas. (2013). Walter Isard and the Role of Regional Science and Peace Science for the Poor Countries. International Regional Science Review. 37. 96-106. 10.1177/0160017613484927.; Michael Storper «The Regional World: Territorial Development in a Global Economy» (1997), «Regional Development in the Global Economy» (2001); Geoffrey J. D. Hewings «Regional Economics and Policy» (2003), «Economics and GIS: From Spatial Data to Decision Support» (2001); А.М.Берлянт Картография: – М.:Аспект Пресс, 2002. –336 с; DeMers M.N.GIS For Dummies/

Работы ученых стран СНГ, таких как А.Р.Таймасов, А.В.Мошков, Н.В.Дювина, Н.В.Трофимова, В.А.Бессонов, В.В.Иванов, посвящены изучению региональных и отраслевых особенностей структурных изменений в экономике⁶.

Вопросы развития и прогнозирования региональной экономики получили широкое освещение в научных работах таких ученых, как Т.Ахмедов, А.Содилов, А.Солиев, Ш.Назаров, А.Низамов, А.Кадыров, А.Маматкулов, Б.Валиев, Б. Рузметов, Ф.Эгамбердиев, И.Якубов, М.Махмудов, Б.Б.Беркинов, Д.С.Ашуров, М.Мирзакаримова, Н.Сотволдиев, Э.Эргашев, Б.Маъмуров и другие⁷, которыми разработаны методические подходы к экономическому анализу, статистике, макроэкономическому моделированию, территориальному подходу и прогнозированию. Теоретико-методологическую основу исследования регионов в нашей стране составляют концепции размещения и развития производительных сил. Кроме того, Т.Х.Болтаев, М.Мирзалиев, Е.Ю.Сафаров и А.А.Ибраимова в своих исследованиях рассматривали вопросы картографического отображения социально-экономических процессов, их анализа, а также выявления территориальных различий.

В свою очередь, М.К.Султанов, С.Авезбаев и О.С.Авезбоев проводили научные исследования по вопросам применения геоинформационных систем в анализе экономических и социальных процессов, оценке регионального развития, а также управлении и моделировании пространственных данных⁸.

M.N.DeMers. – Jersey: Wiley, 2009. – 384 p; Glebov M.P et al 2013, Knowledge of the land as an integral element of the general culture Bulletin of the Irkutsk State Agricultural Academy 2(57-2)83-8; Biryukov L.E 2010, Fundamentals of planning and improvement of populated and industrial territories (M.: Higher School); Hiller B and Yambaev Kh.K.2016, Development and full-scale tests of an automated deformation monitoring system Bulletin of SSUGit 1(33) 48-61; Vovk I.G and Bugakova T.Yu,2010, The theory of determining in the technogenic geodynamic risk of the spatio-temporal state of technical systems GEO-Siberia-2010. VI International scientific Congr. (Novosibirsk, April 19-29, 2010) vol 1pp 21-4V.P.

⁶ Бессонов В.А. Трансформационный спад и структурные изменения в российском промышленном производстве. М. – 2001. – №. 30 С 114.; Трофимова Н.В., Таймасов А.Р. Анализ структурных факторов развития российских регионов //Экономика и управление: научно-практический журнал. – 2017. – №. 4. – С. 30-33; Иванов В.В. Цифровая экономика: мифы, реальность, перспектива / В.В. Иванов, Г.Г. Малинецкий. - Москва: Российская академия наук, 2017.

⁷ Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов. – Т., 2011, –120 б.; Ахмедов Т.М. Стратегия комплексного и устойчивого развития регионов Узбекистана. В кн.: Модернизация национальной экономики Узбекистана. – Т.: АН РУз, 2011. – С. 18-21.; Кадиров А. Региональная экономика. – Т.: Издательский дом Инновационного развития, 2018 г., 227 с.; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне //Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.; Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис. докт. экон. наук. – Ташкент: 1998.; Якубов И. Формирование эффективной структуры экономики регионов Узбекистан в условиях углубления рыночной реформы. Автореф. дис. кан. экон. наук. – Ташкент: 2004.; Низамов А.Б. Экономический рост: управление региональной экономикой в условиях рынка. Монография. – Т.: Turon-Iqbol, 2006, 208 с.; Салиев А.С. и др. Сдвиги в отраслевой и территориальной структуре экономики Узбекистана //Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов. – 2016. – №. 5. – С. 209-218; B.B. Berkinov, D.S. Ashurova, M.K. Abdullaev. «Mintaqalami ijtimoiiqtisodiy rivojlanishini prognozlash» – (o'quv qo'llanma) – Т.: TDIU, 2010-yil – 216 bet; М.М. Мирзакаримова Экономический цикл: структурные изменения и вопросы занятости. – Т.: «FAN», 2010. – 215 с.; Nizamov A.A. Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: O'zMU, 2021. – 58 b, B. Ma'murov. Raqamlashtirish sharoitida hududlar iqtisodiyoti tarkibini takomillashtirish i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: TDIU, 2023. – 60 b; Ergashev, E. I. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma. 318 b. NIF MSH. ISBN:978-9910-793-21-9. 2024.

